



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 yil. “9”aprel

111-son

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom va 2024-yilgi ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori topshiriqlari ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 7-sentabrdagi 5/156-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi” ish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 7-sentabrdagi 5/156-son buyrug‘i bilan Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tuzilganligi va uning yangi tarkibi tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy nizom asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga**;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2024-yilgi ish rejasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirlikning Jamoatchilik kengashi raisi va o‘rinbosari **I.Axmedov, E.Kamilov** kengash a‘zolari bilan birgalikda tasdiqlangan nizom va ish reja asosida kengash ishini o‘rnatilgan tartibda tashkil etib borilishini ta‘minlasin.

4. Devonxona (G.Otaboyeva) ushbu buyruqni barcha tegishli tashkilotlarga yetkazilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosi nazorati vazir o‘rinbosari T.Alimatov zimmasiga yuklansin.

Vazir



B.Zakirov